

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus
ta'lim vazirligi

Qarshi Muhandislik Iqtisodiyot Instituti

Muhandis texnika fakulteti

YETTvaE yo'nalishi T-242 guruh talabasi

A'loyev Qobulning

“Avtotransport tarmog'i korxonalarini loyihalash” fanidan yozgan

Referat

Bajardi:

A'loyev Q.

Qabul qildi:

dots. Bo'ronov SH.

Qarshi-2014

Mavzu: Avtomobillarni saqlash joylari.

REJA:

1.Avtomobillarni saqlash joylarini rejalashtirish.

2.Avtomobillarni saqlash usuli.

3.Avtomobillarni saqlash joylariga o`rnatish usullari.

4.Avtomobillarni saqlash joylaridagi muommolar va ularni yechimlari.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarori bilan avtomototransport vositalarini doimiy va vaqtincha saqlash joylarini tashkil etish va ulardan foydalanish tartibi to'g'risida nizom tasdiqlandi. Qaror avtomototransport vositalarini doimiy va vaqtincha saqlash bo'yicha xizmatlar ko'rsatuvchi yuridik shaxslar faoliyatini tartibga solish, shuningdek ushbu xizmatlar sifatini oshirish maqsadida qabul qilindi.

Ma'lumki, avtomototransport vositalarini saqlash xizmatlari deganda avtomototransport vositalarini saqlash joylarini avtomototransport vositalarining aniq egalariga biriktirgan yoki biriktirmagan xolda avtomototransport vositalarini doimiy va vaqtincha saqlash bo'yicha pullik asosda ko'rsatiladigan xizmatlar tushuniladi. Tasdiqlangan Avtomototransport vositalarini doimiy va vaqtincha saqlash joylarini tashkil etish va ulardan foydalanish tartibi to'g'risidagi ushbu nizomda yuridik shaxslar tomonidan avtomototransport vositalarini saklash xizmatlari ko'rsatish sohasidagi faoliyatni amalga oshirish tartibini belgilaydi.

Ushbu Nizom:

fuqarolarning avtomototransport vositalarini saqlash uchun avtomototransport vositalari egalariga tuman (shaxar) xokimining qaroriga muvofiq berilgan ular yashaydigan joylar yaqinidagi yer uchastkalarida ularning mablarlari hisobiga qurilgan yakka tartibdagi garajlarga — inshootlarga;

tashkilotlarga berilgan, avtomototransport vositalari saqlanganligi uchun to'lov undirilmaydigan yer uchastkalarida joylashgan avtomototransport vositalarini saqlash joylariga;

qonun xujjatlari buzilganligi uchun ushlangan avtomototransport vositalarining to'xtash joylariga tatbiq etilmaydi.

Avtomobil to'xtash joylari hududlarida quyidagilar ta'qiqlanadi:

– avtomobil tuxtash joylarini kurish buyicha loyixada nazarda tutilmagan vaktinchalik va kapital inshootlarni barpo etish va urnatish;

avtomototransport vositasini ta'mirlash, yuvish, unga yonilg'i-moylash materiallari kuyish, buning uchun maxsus ajratilgan joydan tashkari;

dvigatel va agregatlar uchun ochiq holdagi olovdan foydalanish;

avtomototransport vositasini soatiga 5 km dan ortik tezlikda boshqarish;

tamaki chekish, spirtli ichimliklar ichish;

yonilg'i-moylash materiallarini saklash uchun joylar barpo etish; avtomototransport vositalarini chorpoyalarga, tagliklarga va shu kabilarga qo'yish.

Nizomga binoan, avtomototransport vositalarini saqlash bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar uchun to'lov avtomototransport vositalarini saqlash bo'yicha xizmatlar ko'rsatuvchi yuridik shaxslar tomonidan belgilanadigan tariflar, lekin xalq deputatlari tegishli tuman (shaxar) Kengashi tomonidan xizmatlarning ushbu turi uchun belgilangan to'lovning cheklangan miqdoridan yuqori bo'lmagan tariflar bo'yicha amalga oshiriladi.

Avtomototransport vositalari egalarining yakka tartibdagi garajlari buzib tashlangan taqdirda ularga avtomobil vositalarini doimiy saqlash bo'yicha uy-joy mavzellaridagi buzib tashlangan yakka tartibdagi garajla o'rnida tashkil etiladigan avtomobil to'xtash joyida doimiy ravishda bepul birkirilgan joy beriladi.

Avtomototransport vositalarini saqlash bo'yicha xizmatlar ko'rsatuvchi yuridik shaxslar avtomototransport vositalarini vaqtincha saqlash bo'yicha pulli xizmatlar ko'rsatish huquqi uchun O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksida belgilangan tartibda aniq belgilab kuyilgan soliq va yig'im to'laydilar.

Bu O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksida belgilangan tartibda yagona soliq to'lovi yohud umumiy belgilangan soliqlar to'laydigan avtomototransport vositalarini doimiy saqlash bo'yicha xizmatlar ko'rsatuvchi yuridik shaxslarga tatbiq etilmaydi.

Avtomototransport vositalarini vaqtincha saqlash bo'yicha xizmatlar ko'rsatish huquqi uchun yig'im miqdori xalq deputatlari tegishli tuman (shaxar) Kengashi tomonidan belgilanadi va u cheklangan stavkalardan ortiq bo'lishi va qonun hujjatlarida belgilangan miqdorlardan past bo'lishi mumkin emas.

Avtomototransport vositalarini vaqtincha saqlash bo'yicha faoliyat bilan birga faoliyatning boshqa turlarini amalga oshiruvchi yuridik shaxslar faoliyatning ushbu turlari bo'yicha alohida hisob yuritishlari hamda tegishli soliqlar to'lashi va O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksida belgilangan tartibda boshqa majburiy to'lovlarni to'lashi shart.

Davlat soliq xizmati organlari avtomototransport vositalarini doimiy va vaqtincha saqlash bo'yicha xizmatlar ko'rsatuvchi yuridik shaxslar faoliyati yuzasidan qat'iy nazorat o'rnatilishi belgilab qo'yildi.

Shuningdek, Vazirlar Mahkamasining «Avtotransport vositalarini vaqtincha saqlash bo'yicha pulli xizmatlar ko'rsatuvchi yuridik shaxslar faoliyatini tartibga solish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 2010 yil 5

apreldagi 63-son karori o'z kuchini yo'qotdi.

Avtomobillarni saqlash joylari aholi yashaydigan mavzelerde, aeroportda, vokzallarda, bozorlarda, stadionlarda, tomoshaxonalarda va boshqa odamlar ko'p to'planadigan joylarda tashkil qilinadi.

Saqlash joylarida shaxsiy avtomobillar qisqa vaqt va uzoq muddat saqlanishi mumkin. Qisqa vaqt avtomobillar asosan ochiq maydonlarda, uning egasi o'z ihini bitirib chiqquncha saqlanadi. Aholi zich yashaydigan katta shaharlarda (Milan, Kyoln va boshqalar) avtomobilla mexanizatsiyalashgan ko'p qavatli turar joylarda saqlanadi.

Avtomobillarni uzoq muddat saqlash uchun avtomobillar turar joylari jihozlanadi. Avtomobillar turar joylari shaxsiy hovli yuzasida yoki bostirmalarda, ko'p qavatli binolarda yaqin joylardagi yakka tartibdagi joyda, yer usti va yer ostida tashkil qilinadi. Yer usti va yer osti avtomobil turar joylari bir qavatli yoki ko'p qavatli bo'lishi mumkin. Bi qavatli turar joylar aholi yashaydigan ko'p qavatli binolarga yaqin joylarda jihozlanadi. Yer ustidagi bir qavatli turar joylari uchun maxsus yer ajratiladi va u jihozlanadi. Yer ostidagi bir qavatli avtomobil turar joylari yo'llar, trotuarlar, ko'priklar, gulzorlar va imoratlar ostiga joylashtiriladi.

Toshkent shahrida Pushkin va Osokin ko'chalari choraxasida, kosmonovitlar prospektida va boshqa joylarda shunday avtomobil turar joylari qurilgan.

Yer usti avtomobil turar joylari ko'p qavatli ham bo'lishi mumkin. 211 ta shaxsiy yengil avtomobil uchun avtomobil turar joylari loyihasi keltirilgan.

Loyihaning asosiy ko'rsatkichlari:

-avtomobil turar joylari soni-211;

-shu jumladan har qavatda -72;

-qavatdagi saqlash joylari maydoni, m kv -1560;

-shu jumladan, har qaysi turar joy maydoni, m kv-22.

Avtomobillar qavatlar aro yarimaylanasimon rampalar orqali harakatlanadi. Uch qavatli binoning birinchi qavatida saqlash joylaridan tashqari avtomobillarni yuvush posti, o'z avtomobiliga o'zi texnik xizmat ko'rsatish postlari joylashgan.

Dunyoning en katta shaharlaridan ko'p qavatli yer usti va yer osti avtomobillar turar joylari qurilgan. Chikago shahrida 60qavatli binoning pastki 19-qavatida 900 avtomobil turar joylari o'rnashgan. Parij shahrining Monparnas xiyoboni hududida 824 o'rinli 6 qavatli yer

osti,Alban-Satran xiyoboni hududida 855 o`rinli 6 qavatli yer osti avtomobil turar joylari qurilgan.

Mintaqalarda avtomobillarni 4 xil usulda saqlash qo'llaniladi .

- 1.Yopiq issiq binoda**
- 2.Yopiq isitilmaydigan binoda**
- 3.Yarim ochiq (ayvon)**
- 4.Ochiq maydonda**

Saqlash usuli avtomobil turiga, iqlim sharoitiga saqlash binolarin qurish uchun saqlanadigan maydoniga qarab topiladi.

Odatda engil avtomobillar va avtobuslar yopiq binolarda ,yuk avtomobillari esa ochiq binolarda saqlanadi.

Yopiq saqlash mintaqalari er osti va er usti , bir qavatli va ko`p qavat binolarda bo`lishi mumkin.

Ko`p qavatli saqlash turar joylarda avtomobillarni qavatdan-qavatga ko`tarilishi quyidagicha bo`ladi.

- 1.Mexanizatsiyalashmagan**
- 2.Yarim mexanizatsiyalashgan**
- 3. Mexanizatsiyalashgan**

Avtomobillarni saqlash mintaqalarida o`rnatilishi ularni vazifasiga v turiga , ishlatilish sharoitiga, ishga chiqish va qaytish sharoitiga, iqlim sharoitiga harakatlanish osonligi va xavfsizligiga, saqlash uchun ajratilgan mablag`larni tejimli ishlatishga bog`liq bo`ladi.

Avtomobillarni saqlashda boshi berk o`rnatishda 2qatorli , boshi ochiq o`rnatishda 8qatorgacha bo`ladi, 1qatorli o`rnatishda avtomobillar to`g`ridan-to`g`ri chiqib ketishi mumkin. Ko`p qatorli o`rnatish usuli bir turdagi yirik o`lchamli avtomobillar va avtopoyezdlar, hamda jadval

bo'yicha bir vaqtda ishga chiqadigan va qaytadigan avtobuslar uchun qo'llaniladi.

Avtomobillarni o'tish yo'lisiz o'rnatilishi ko'p sonli darvozalar qurishni talab qiladi. Shuning uchun ko'proq bino ichida o'tish yo'lib o'lgan o'rnatilish usulidan foydalaniladi. Binolarda avtomobillar saqlash joyiga orqasi bilan qo'yilib oldi bilan chiqib ketadi, ochiq maydonda saqlanganida, qishda isitish qurilmasida dvigatel o'rnatilgan tomonga qo'yiladi.

To'g'ri burchakli o'rnatilish (90), qiyshiq burchakli (30...60) o'rnatilishda ko'proq o'tish enini talab qilsa ham tejamliroqdir.

Saqlash mintaqasida avtomobil bilan bino elementlari orasidagi masofa avtomobil toifasiga qarab "Qurilish me'yorlari va qoidalarida" keltirilgan, saqlash mintaqasidagi o'tish postining kengligi chizma usulida yoki jadval yordamida aniqlanadi. Avtomobil turar joylari qurush Respublikamiz shaharsozligida ham yechilishi lozim bo'lgan dolzarb muommolardan biri hisoblanadi.

Dunyo davlatlarini tashvishga solayotgan jahon moliyaviy iqtisodiy inqirozining salbiy oqibatlarini bartaraf etishda mavjud ichki imkoniyatlardan oqilona foydalanishning ahamiyati katta. Ayniqsa, yurtimizda so'nggi yillarda turli rusumli avtoulovlar soni sezilarli darajada oshayotganini hisobga olsak, mavjud bir zumlik va doimiy avtostoyankalarda to'lovlarning o'z vaqtida kelib tushishini shakllantirish dolzarb vazifalardan biriga aylanmoqda. Bu esa pul aylanish muomalasini barqarorlashtirishga ham o'z ulushini qo'shadi.

- Oliy Majlis Qonunchilik palatasi mahalliy soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni byudjetga qo'shimcha jalb qilish imkoniyatlari masalasida tahliliy o'rganishlar o'tkazdi, - deydi Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati, byudjet va iqtisodiy islohotlar qo'mitasi a'zosi Samidull


Mahmudov. - O'rganishlar shuni ko'rsatdiki, Toshkent shahar mahalliy byudjetining joriy yil birinchi choragida daromadlar bo'yicha belgilangan prognoz ko'rsatkichlari 145,7 milliard so'm o'rniga 150,1 milliard so'mga bajarilib, 4,4 milliard so'mga ko'p soliq va boshqa majburiy to'lovlar tushgan. Ammo, aholiga pullik xizmat ko'rsatish borasida, ayniqsa, avtotransportlarni uzoq va qisqa muddatli saqlash maqsadida tashkil etilgan vaqtincha to'xtash joylaridan olingan daromadlarni mahalliy byudjetlarga jalb qilish borasidagi ishlarda sustkashliklarga yo'l qo'yilgan. Agar Toshkent shahri hududida avtotransportlarni saqlashni ta'minlovchi 60 dan ortiq yuridik shaxs ro'yxatga olingan avtoto'xtash joylari namunali faoliyat ko'rsatganida edi, tushumlar bundan-da oshardi. Buning o'rniga O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 358-moddasi va «Iste'molchilar huquqlarini himoya qilish to'g'risida»gi Qonunning 4-moddasi talablariga zid ravishda avtotransportlarning qisqa muddatli saqlash va to'xtash joylarida to'lov qog'ozlar umuman berilmagan. Berilganlari esa kassa apparatidan o'tkazilmagan yoki belgilangan tartibd muhrlanmagan. Shu bilan birga, ularning kim tomonidan berilgani aniq ko'rsatilmagan, hatto uning yagona shakli ham mavjud emas. Har qaysi yuridik shaxs ixtiyoriy ravishda kvitansiya shaklini ishlab chiqib, foydalanayotgan hollar ko'plab uchragan.


Yana bir qiziq holat. Avtotransportlarni qisqa muddatga saqlash joylarida transport vositalari ichidagi jihozlarga zarar yetkazilganda, ma'muriyat javobgar emasligi kvitansiyalarga yozib qo'yilgan. Xo'sh, unda ma'lum miqdordagi to'lov nima uchun olinadi?

Shunisi ajablanarliki, avtotransportlarni vaqtincha saqlash joylari shaharda inventarizatsiyadan o'tkazilganda, yana qo'shimcha 70 ta joyda 5000 taga yaqin avtotransportlarni saqlash joylari mavjudligi ma'lum bo'ldi. Bu joylar aksariyat yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan

o'zboshimchalik bilan egallab olinib, hech qanday ruxsatsiz va ro'yxatdan o'tmasdan faoliyat ko'rsatib kelinayotganiga nima deysiz?

Qonunda belgilangan tartibda ushbu joylardan bir oyda eng kam ish haqining 8 barobari miqdorida soliq to'laganda, bir yilda shahar mahalliy byudjetiga yana 200 million so'm mablag' tushishi mumkin ekan. Ammo, ayrim kimsalar jamoat kassasidan ko'ra o'z kissalarini noqonuniy ravishd to'ldirishni afzal ko'rmoqdalar. Bir narsani unutmaslik kerak, har qanday mulkni xususiyashtirish mumkin, ammo nazoratni xususiyashtirib bo'lmaydi-ku?!





211 та шахсий енгил автомобиллар сақлаш жойи:

1- автомобиллар сақлаш минтақаси; 2 – ўз автомобилига ўзи хизмат кўрсатиш постлари; 3 – омборхона; 4 – шамоллатиш камералари учун хона; 5 – рампа; 6 – навбатчи хонаси; 7 – автомобилларни ювиш пости.

XULOSA

Bajarilgan referat ishi bo`yicha quyidagi xulosa qilindi: avtomobillar ko`paygani sari ularni harakatlanishi va saqlash joylariga joylashtirish dolzarb muommoga aylanib boradi. Avtomobillarni yopiq va issiq binolarda saqlash, uning umrini uzaytiradi. Avtomobillarni ochiq joyda saqlansa, ob-havoning sovuq va issiq sharoitlarida uning rangini xiralashishi, shina va rezina qismlarini ishdan chiqishi va kabina qismiga jiddiy zarar yetkazadi. Shaharlarda avtomobillarni saqkash joylarini ko`p qavatli binolarning pastki qavatlarida rejalashtirish, avtomobilni issiq va sovuqda qolishidan saqlanadi.

Ko'rganlarimizdan xulosa shuki, avtomobillarni uzoq va qisqa muddatli to'xtash joylari faoliyati juda zarur. Ammo, ularning xizmat sifati madaniyatini oshirish ustida jiddiyroq o'ylab ko'rish kerak. Qolaversa, xizmat haqi qanday me`yor, mezon va hisob-kitoblardan kelib chiqib qo'yilgan? «Avtostoyanka»lar tushumlaridan soliqlar to'lash qoidalari buzilmayaptimi?..

Demak, bu kabi holatlarda tegishli tartib o'rnatish uchun shahar va tumanlar hokimliklari, huquq-tartibot organlari hamda mahalla fuqarolar yig'inlari hamjihatlikda nazorat olib borishlari lozim bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI

1. Musajonov M. Z. Avtotransport tarmog`i korxonalarini loyihalash. Tosh 2006 yil

2. Напольский Г. М. Пугин А. В. Avtotransport

3. korxonalarini qayta qurush va qayta jihozlash (Musajonov va Mo`minjonov tarjimasi)

4. Internet [www Google.uz](http://www.Google.uz)